



MAKTABLARDA ONA TILI OQITISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA METODIK INOVATSIYA HAMDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2023

Accepted: 26th May 2023

Online: 27th May 2023

KEY WORDS

*Analitik mashq, sintetik mashq,
empiric metod, eksperiment
metod, til materiali, fsmu
metodi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktablar faoliyatida ona tili o'qitish darslarini tashkil etishda metodik innovatsiyalar hamda fanlararo integratsiyaning ahamiyati yuzasidan fikr va muhohazalar yuritilgan bo'lib, dars davomida qo'llash mumkin bo'lgan metodlar yuzasidan qarashlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, maqolada, ta'lim tizimida ona tili o'qitishning, eksperimental metodlarining amaliyoti bilan ishlashish borasida o'ziga xosligi ham ifodalangan. Maqolada analitik mashqlarning bajarilish texnikasi, sintetik mashqlarning mustaqil mashq tuzishga qaratilgan ijodiy qobiliyatga muvofiq amalga oshirilishi ochib berilgan.

Bugungi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalar qatorida ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarning o'rni va ahamiyati har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat va millat rivojiga sabab boluvchi dasturiy vosiytalardan biri bu tildir. Shuning uchun ham ta'lim tizimining ona tili o'qitish darslarini tashkil etishda nazariy tekshirish metodlari, empiric metodlar, eksperiment metodlarni turli innovatsion yangiliklar bilan hamkorlikda tashkil etish keng samara beradi. Maktab o'quvchilari uchun ona tili darslarining tashkil etilishida o'quvchilarning yosh xususiyatlari shu bilan birga o'zlashtirish darajasi hamda fundamental bilim kompetensiyalarining ahamiyati kata. O'quvchilarga bilim berish balki, gramatik va orfografik materiallarni izchil o'rgatishda ijtimoiy fan doirasida qo'yiladigan minimal talablarning turli parametrlari dars tizimi davomiyligida yuzaga kelishi zarur. Bunda individual tarzda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishlariga erishish, o'qish va nutqiy texnikaning yaxshi rivojlanishi, dars davomiyligida ilgari surilayotgan fikr va mulohazalarga munosabat bildira olish, xulosaviy yoki tanqidiy fikrlarning yozma bayon qila olish mlakasini rivojlanishi muhimdir. Yuqorida keltirilgan masalalalardan kelib chiqqan holatda, dars tizimini tashkil etishda avvalo, darsni turli bosqichlarga ajratib olgan tarzda an'anaviy yoki noan'anaviy dars uslubi tanlanadi. Mavzu doirasida yaxshi samara beruvchi metodlarning saralab olinishi yoki tayyor metodlarning navatsiya qilingan holatda dars tizimiga joriy etrilishi metodik inovatsiyalarning yaxshi natijalarni keltirib chiqarishida yordam beradi.



“Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani yo’lga qo’yish vositasi sifatida adabiyotni san’atning boshqa turlari bilan uyg’unlikda o’rganish yuzasidan ko’plab tadqiqotlar olib borilgan bo’lsa-da, adabiyot va san’at asarlarining yaqinligi to’liq tadqiq etildi degan xulosani aytib bo’lmaydi. Badiiy adabiyot vakillarining ijod namunalarini o’rgatish va tahlil qilish, talaba yoshlarni o’zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, keng dunyoqarashga ega bo’lgan ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash muhimdir”. [1]

Ona tili o’qitish darslarining tashkil etilishida imlo savodxonligi, nutq o’stirish darajasining yonaltirilgan ekanligi hamda sintaktik materiallardan foydalanishda gramatik qoidalar bilan birgalikda mashqlarning ham ahamiyati kata. Bugungi kunda dunyo ta’lim standartlarining inobatga olinishi va dunyo hamjamiyati tajribasining yaxlit tarzda organilishi fanlararo integratsiyaning uzviy tarzda rivojlanishiga imkoniyar yaratib bermoqda. Shuning uchun ham, analitik mashqlar va sintetik mashqlarning bajarilishida fanlararo integratsiyaning o’ziga xosligi namoyon bolmoqda. Bunda o’quvchilar bilan individual ishlashish jarayonida oquvchilarning nutqiy intonatsiyasi, nutqning ifodaliligi, matn tuza olish texnikasi hamda imlo savodxonliging inobatga olinishi lozim. O’quvchilarning tayyor matnlar yoki gaplarga nisbatan bergan ta’rifi, tahlil xususiyatlari analitik mashqlarning logistika, notiqlik san’ati va shu kabi sohalarining ham aloqador ekanligiga urg’u beradi. Umumiy qilib olganda, ona tili o’qitish texnologiyasi doirasidagi mashqlar bir necha qismlarga bolinadi. “Analiz yoki sintezning ustunligiga nisbatan gap ustida ishlash mashqlari ikkiga bolinadi:

1. Analitik mashqlar, ya’ni tuzilgan tayyor matndan olingan gapni tahlil qilish;
2. Sintetik mashqalar, ya’ni mustaqil mashq tuzishga qaratilgan mashqlar.

O’quvchilarning mustaqilligi va bilish jarayonining faollik darajasiga ko’ra gap ustida ishlash mashqlari uchga bo’linadi:

1. Namuna asosidagi mashqlar;
2. Konstruktiv mashqlar;
3. Ijodiy mashqlar”. [2]

Maktab o’quvchilari uchun chop etilgan maktab darsliklarining yaxlit holda mavzuning o’zlashtirilishiga urg’u berish hamda bilim salohiyatining oshirilishida boshqa turdagi mashqlarga nisabatan ijodiy mashqlarning kengroq tarzda berilishi kuzatiladi. Darsning mavzusiga muvofiq keluvchi individual yoki jamoaviy tarzda ishlanadigan mashqlarning ifodlanishida o’qituvchining mohirlik bilan vaziyatdan kelib chiqib, dars sifatini oshiruvchi usullardan foydalanishi lozim. Bunday hollarda metodlarning novatsiyaga uchrashini ham kuzatish mumkin. Misol uchun: uyga vazifa sifatida ma’lum mavzuning yoritilib kelishi yuzasidan ijodiy mashqlarning tekshirilishida o’qituvchi vaqtdan unumli foydalanib, metodlar asosida vazifalarni tekshirib chiqishi mumkin. Bunday holatlarda uch qadam, FSMU kabu metodlar yaxshi samara beradi. Maktab talimining aksariyat hollarda an’anaviy dars tizimiga moslashib qolgan holatini kuzatish mumkin.

“Ta’lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o’tish, so’nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg’ulotlar o’tkazish, mutaxassislik bo’yicha, masalan kimyo sohasidagi so’nnggi innovatsiyalar haqida ma’lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o’tish



talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi".[3] Bundan farqli o'laroq dars davomida noan'anaviy metodlarning qo'llanilishi metodik innovatsiya va navatsiyalarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda maktab o'quvchilarining ona tili darslarida didaktik tamoyillar asosida ta'lim olishini ta'minlash, psixolingvistik prinsplarga tayanish ona tili o'qitish metodikasining rivojlanishiga imkon yaratadi. Ona tili o'qitish metodikasining yangi tahrirda ishlab chiqilishi ona tili o'qitish metodikasning tamoyillari asosida ham yuzaga keladi. Bunda til materialiga, nuqt organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili va nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili qolgan tamoyillardan fanlararo integratsiyalashuv jarayoni orqali namoyon boladi. Shu bilan birga ona tili o'qitish metodikasida tekshirish metodlarining ham ahamiyati kata.

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, maktablarda ona tili o'qitish darslarini tashkil etishda metodik innovatsiya hamda fanlararo integratsiyaning ahamiyatiga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning o'rni, ahamiyatini yaxshi anglagan holatda turli mashq turlari bilan ishlashish qonuniyati amalga oshirilishi metodik innovatsiyalar bilan o'zaro bog'liqlikni tashkil etadi.

References:

1. Azimova Umida Abduqaxxarovna. "Fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yishning o'ziga xos xususiyatlari" maqola. International scientific journal - 2022
2. Qosimova Karima, Matchonov Safo, Gulomova Xolida, Yoldosheva Sharofat, Sariyev Sharofjon "Ona tili oqitish metodikasi". Toshkent:. "NOSIR" nashriyoti 2009
3. Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi. "Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi" maqola. "Scientific education" Scientific journal